



O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA PARAFRAZALARNING O‘RGANILISHI

Utegenova O‘g‘iloy Pardavayevna,

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti
utegenovaugiloy@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243861>

***Annotatsiya.** Maqolada ilk bor o‘zbek tilshunosligida parafrazalarni kimlar tadqiq qilganligi xususida so‘z boradi. Parafrazalarning yondosh hodisalardan farqli va o‘xshash jihatlari, nutq va til birligiga aylangan parafrazalarga doir misollar keltirilgan. Bundan tashqari parafraza lingvomadaniy, kognitiv jihatdan o‘zbek tilshunoslari tomonidan qisman bo‘lsada o‘rganilganligi ilmiy asosda yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** parafraza, badiiy ifoda, lingvomadaniyat, yondosh hodisalar, frazema, nutq birligi, til birligi.*

O‘zbek tilshunosligida parafrazalarning o‘rganilishi rus tilshunosligidagi mavjud ma’lumotlar bilan bog‘liq. 1950-yilda rus tilida nashr etilgan “Краткий словарь иностранных слов” [7:306] lug‘atida ushbu stilistik vosita haqida quydagi izoh berilgan. “Parafraza grekcha paraphrasis tasviriy ifoda, tasvir.

1. O‘z so‘zlari bilan ifodalash, boshqa bir matnni, umuman bironing fikrini bayon qilish.

2. Musiqada biror boshqa musiqiy asarni mustaqil variatsiyalar va jilolar bilan qayta yaratish.

Ushbu lug‘atda parafrazaning umumiy ma’nosi keltirilib, ko‘chim turiga, stilistik tomoniga, qayta nomlovchi vositaligiga e’tibor berilmagan. Ammo parafraza termini, izohi rus tilidan kirib kelgan bo‘lsada, xalq og‘zaki ijodida, ya’ni maqollarda A. Navoiyning “Muhokamat ul lug‘atayn”, “Hayrat ul abror” asarida parafrazalarni uchratamiz. Masalan, so‘z ko‘rki maqol, yigit ko‘rki soqol. So‘z ko‘rkini parafraza deyish mumkin. Shoirga nisbatan A. Navoiy quydagi ikkilamchi nomni qo‘llaydi “So‘z san’at ahlining boshqochisi va so‘z qiymatbaho gavhari xazinasining g‘aznaboni va nazm gulistonining sayroq bulbuli, ya’ni gunohlari mag‘firat qilinishi va ayblari yopilishini istaydigan Alisher” deya shoir o‘ziga murojaat qiladi. Ushbu jumlada shoirga nisbatan bir nechta tasviriy ifoda berilgan [6:143]. Dastlab parafrazalarni o‘quv qo‘llanmalarga olib kirgan olim R. Qo‘ng‘urovdir. U o‘zining 1983-yilda nashr ettirgan “O‘zbek tili stilistikasi” qo‘llanmasida quydagilarni keltirgan. “Perifraz. Kishilarning otlarini yoki boshqa predmetlarning nomini to‘g‘ridan to‘g‘ri gapirmasdan, ularni turli xil so‘z yoki tasviriy ifodalar vositasida bayon qilish perifraz deyiladi. Bu perifraz, parafraza, parafraz deb ham yuritiladi” [250:372].



Bundan tashqari parafrazalar haqida ma’lumot H. Shamsiddinovning “Perifrazalar xususida ayrim mulohazalar” nomli maqolasida yoritildi. Maqolada parafrazaning ibora bilan umumiy va xususiy jihatlari, parafrazaning til va nutqqa munosabati haqida so‘z yuritiladi. Olim ilk bor ifodalangan parafraza til mulkiga aylanmagan bo‘lsa, qo‘shirnoqda berilishi zarurligini keltirib o‘tadi. O‘zbek tilshunosligida ilk bor I. Umirov parafrazalarga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. I. Umirov va R. Rasulov hamkorlikda “O‘zbek tili tasviriy ifodalarining izohli lug‘ati” kitobi nashr etildi. Ushbu izohli lug‘atda o‘zbek tilidagi parafrazalar to‘plangan, ma’nosiga ko‘ra shaxs, predmet, joyga nisbatan ifodalanuvchi parafrazalar izohlab berilgan. O‘z navbatida tasviriy ifodalarning bir nechta ko‘rinishi masalan, *ilm kaliti*, *bilim bulog‘i*, *ilm chirog‘i* kabi sinonim parafrazalar ya’ni kitobning tasviriy ifodalari berilgan.

Bilamizki, parafrazalar ko‘p aytilib, xalqning lisoniy ongida tayyor holda bo‘lsagina til mulkiga aylanadi. Bugungi kunda *oq oltin*, *qora oltin*, *g‘azal mulkining sultoni*, *obi hayot* kabi tasvir vositalari til mulkiga aylanib ulgurgan. Aymoqchimizki, ushbu parafrazalar paxta, neft, Alisher Navoiy, suvga nisbatan ekanligini shu millat vakillari biladi. Ammo til mulkiga aylanmagan jamiyatning yarasi, dunyoni erta taniganlar, iqtisodiyotning qoni kabi parafrazalarda nima nazarda tutilayotganini fikrlab olish uchun matn kerak bo‘ladi. “Aslida inson juda qadim zamonlardan beri predmetning belgisi, holati va harakatini ham boshqacha nomlab, atab kelgan. Faqat bunday nomlash tilshunoslikda turg‘un birikmalar deb yuritiladi”. [4:123]

Tilshunos D. Aytboyev birgina so‘z parafraza bo‘la olmasligini, fraza tarkibining o‘zi birdan ortiq so‘zni talab qilishini ta’kidlaydi biroq I. Umirov kamina, ojiza, sohibqiron leksik parafrazalar deb ataydi. Tadqiqotchi A. Qobilova kasofat so‘zini matn ichida keltirib, leksik parafrazaga kiritadi. Gripp kasofat yomon yopishdi, besh-olti kun varaja qildi. [143:255]. Bizningcha, kasofat yozuvchining so‘z qo‘llash mahorati bo‘lib, tasviriy ifoda emas, ko‘chma ma’noda qo‘llangan leksik birlik deyish mumkin. Ammo parafrazalar birgina so‘zdan iborat bo‘lmaydi fikriga qo‘shilib bo‘lmaydi. So‘z, so‘z birikmasi hatto bir gap ko‘rinishida parafrazalar bo‘lishi mumkin. Mohiyatan so‘zning tarkibi emas, balki ikkinchi nom bo‘lib kelishi muhim tomoni hisoblanadi. Sohibqiron Amir Temurning ikkilamchi nomi, boshqa shaxsga nisbatan bu so‘z ifodalanmaydi. I. Umirovning “Parafrazalarning badiiy asarlarda qo‘llanilishiga doir” nomli maqolasida nasriy asarlarda parafrazalar quydagi maqsadda foydalanilishini ta’kidlab o‘tadi.

1. Asar qahramonlarining tavsifi to‘laqonli bo‘lishini ta’minlaydi deb quydagi gapni keltiradi. Abdulla issiq qozon ichida qaynadi. [O‘. Umarbekov]. Yozuvchi



hayotning achchiq-chuchugini totiganligini ta’kidlagan. Issiq qozon ichida qaynamoq hayotning qiyinchiligini kechirgan mazmunida berilgan. Parafrazalar ko’chma ma’no asosiga qurilishi tabiiy ammo yuqoridagi misolni parafraza deyish qanchalik to’g’ri.

1. Nasriy asarlarda parafrazalar jummalarning qisqaligini ta’minlash maqsadida ishlatilganda lokanizm [qisqalik, ixchamlik] hodisasi yuzaga keladi. To’g’ri, rais telefon qilgandan keyin **Toshkent radiosining olg’irlari** bu xabarni kechki so’nggi axborotga berishgan edi. [A. Qahhor] gapdagi olg’irlari ixchamlikni yuzaga keltirgan aks holda radioeshittirishni boshqarib boradigan kishilar so’z birikmasini qo’llangan bo’lar edi.

2. Parafrazalar badiiy qiymatni ohiradi va qahramonning biror xususiyatini ochib beradi. Seni atamishlar uyg’onish fasli [A. Oripov she’ri]

Umuman olganda, parafrazalar matndan tashqarida, matn ichida ham o’rganilgan. Har bir o’xshatishga asoslangan til birligida millatga xos kognitiv bilim, madaniyat, urf-odat mujassam. Ayniqsa, efemistik parafrazalarda o’zbek mentalitetiga xos jihat yaqqol aks etadi. Masalan, o’ldi leksik birlik o’rniga so’nggi yo’liga ketdi, abadiy uyqu, abadiy sukunat olami, so’nggi safar kabi parafrazalar ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. “Muhokamat ul lug’atayn” Toshkent. “Tafakkur” nashriyoti. 2014-yil. 6-7-b.
2. Aytboyev D. “O’zbek tilidagi perifrazalarning motivlashuvi va leksikografik talqini” nom.diss. Toshkent. 2007-yil. 7-8-b.
3. Qo’ng’urov R. “O’zbek tili stilistikasi” o’quv qo’llanma. Toshkent.1983. B. 250.
4. Qobilova A. “Tibbiy perifrazalarga oid ayrim mulohazalar” maqola UzMU xabarlar. 2021-yil. 3-son. B.143.
5. Shamsiddinov H. “Perifraza xususida ayrim mulohazalar”// O‘TA 1993-yil. 2-son. 2-3-b.
6. Umirov I. “Parafrazalarning badiiy asarlarda qo’llanilishiga doir”. O‘TA. 1996-yil. N-5. 45-46-b.